

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI SAVODINI CHIQARISHDA (R, S, Z, L, Y)
HARFLARINI TO'G'RI TALAFFUZ QILISH USULLARI**

Bozorova Ra'no Muxitdinovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahri

1-XTCHO'IDU maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: O'qish va yozish - nutq faoliyatining turi. Maktabda o'qitish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. "Alifbe"ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o'quvchilar o'qish va yozishga o'rgatiladi, ya'ni o'qish va yozish ko'nikmasini egallaydilar. Savod o'rgatish davrida o'qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o'qish va yozish ko'nikmasi deyiladi. Bu ko'nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko'nikma bilimsiz shakllanmaydi. O'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtirilib borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Ushbu maqolada, boshlang'ich sinf o'quvchilari savodini chiqarishda (r, s, z, l, y) harflarini to'g'ri talaffuz qilish usullari haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'quvchilari, ta'lif metodlari, r, s, z, l, y harflari, to'g'ri talaffuz ko'nikma va malaka shakllanishi, savod chiqarish.

Yozish malakasida o'quvchi ruchkani qanday ushlash, qanday yurgizish haqida o'ylab o'tirmay, so'z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak, o'qish va yozish malakasi harakatning o'ylab o'tirmay amalga oshirilish jarayonidir. Malaka o'qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib, avtomatlashish darajasiga yetkaziladi. O'qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalga oshuvini ta'minlaydi.

Shuning uchun ham o'qishga o'rgatish bilan yozuvga o'rgatish parallel olib boriladi va bu faoliyat mutnazam ravishda mashq qildiriladi. Shunday ekan, savod o'rgatish jarayonida bola juda ko'p o'qishi va yozishi zarur. O'zbek tili yozushi tovush yozushi, ya'ni fonematik yozuvdir. Har bir tovush uchun, har bir fonema uchun maxsus grafik shakl (harf) olingan. O'qishda grafik shakllar tovushga aylantirilsa, yozuvda aksincha, tovushlar harflarga aylantiriladi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilarning talaffuzi ustida ishlash ham katta ahamiyat kasb etadi, chunki ko'pgina bolalar talaffuzida kamchiliklar bo'ladi: bir tovush o'rniiga boshqasini (sh o'rniiga s, r o'rniiga l) talaffuz qiladilar, chuchuk til bilan duduqlanib gapiradilar, so'zdagi ayrim tovushni tushirib yoki boshqa bir tovush qo'shib talaffuz qiladilar, tovushlar o'rniini almashtirib qo'yadilar. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun logopedlar maxsus mashqlardan foydalanadilar. O'qituvchi ham har bir darsda va darsdan tashqari vaqtida o'quvchilar talaffuzini kuzatib borishi, kamchiliklarni aytib, to'g'ri talaffuz namunasini ko'rsatishi lozim.

Metodning an'anaviy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi shaxsni shakllantirish maqsadiga ko'ra ta'limiy va o'stiruvchi xarakterda bo'ladi, nutqiy mashqlar orqali aqliy o'sishini ta'minlaydi, o'qishning ongli bo'lishini talab etadi.

2. Analitik-sintetik tovush metodi tashkiliy tomondan quyidagi ikki davrga bo'linadi.

Bunda yozuvga o'rgatish o'qishga o'rgatish bilan parallel holda olib boriladi.

3. Analitik-sintetik tovush metodida psixolingvistik nuqtai nazaridan quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

a) savod o'rgatish bolalarning jonli nutqiga, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi;

b) o'qish birligi sifatida bo'g'in olinadi, bo'g'in ustida ishlashga katta ahamiyat beriladi.

Jufti yo'q jarangli va jufti yo'q jarangsiz undoshlar bilan ham o'quvchilar har xil fonetik sharoitda tovushlarni talaffuz qilishni kuzatish jarayonida tanishtiriladi. Buning uchun o'quvchilar so'z oxirida yoki unli tovushdan oldin kelgan ko'l, bilim, otam,

olmos; quyon, bino; shifoner, fabrika; tong, singil; qo'y, kiyik kabi so'zlardagi jarangli undoshning talaffuzini taqqoslaydilar va l, m, n, r, ng, y jarangli undosh tovushlar talaffuz qilinganda, ovoz va shovqin eshitilishini, ya'ni jarangli undosh tovush ekanini, bularning jarangsiz jufti yo'qligini (jufti yo'q jarangli undosh tovush ekanini) bilib oladilar. Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarni tovush va harflar bilan tanishtirishda, ularni sintezlab o'qishga o'rgatishda o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Savod o'rgatish analitik-sintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. So'z bo'g'inga bo'linadi, bo'g'indan kerakli - o'rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o'rganiladigan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o'qish jarayoni o'zlashtiriladi. Bunda o'zbek tili grafik tizimi, tovushlarni yozuvda belgilash xususiyatlari hisobga olinadi. Savod o'rgatishda o'zbek tili grafik tizimining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. 1-sinf o'quvchilarning savodini chiqarish, ayniqsa ularning talaffuzi ustida korreksion ishlarni olib borishda pedagogdan turli metodlarni qo'llash talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Safarova. R. Savod o'rgatish darslari: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma / R. Safarova, M.G'ulomov, M.Inoyatova. – T.: Tafakkur, 2012. – 114 b.

2. www.arxiv.uz